



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

**Nurboboyev Shokir Boynazarovich**

Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi  
e-mail: shokir.nurboboyev1991@gmail.com  
tel: +998 95 191 75 59

## OLIV TA'LIM JARAYONIDA LIDERLIK VA BOSHQARUVNING PSIXOLOGIK JIHLTLARI

**Annotatsiya:** Oliy ta'limda liderlik va boshqaruvning psixologik strategiyalari zamonaviy ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada liderlikning ta'lim jarayonidagi ahamiyati, jamoa muhitiga ta'siri hamda psixologik jihatdan samarali boshqaruv usullari yoritilgan. Oliy ta'lim tizimida psixologik yondashuvlar va strategiyalarni qo'llash nafaqat ta'lim sifatini oshirishga, balki jamoaning motivatsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Oliy ta'lim liderlik psixologik strategiyalar motivatsiya stressni boshqarish konfliktlarni boshqarish psixologik moslashuvchanlik emotsional intellekt samarali boshqaruv jamoa muhitini shakllantirish.

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЛИДЕРСТВА И УПРАВЛЕНИЯ В ПРОЦЕССЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

*Нурбобоев Шакир Бойназарович*  
*Преподаватель Каттакорганского филиала Самаркандского*  
*государственного университета*  
*электронная почта: [shokir.nurboboev1991@gmail.com](mailto:shokir.nurboboev1991@gmail.com)*  
*телефон: +998 95 191 75 59*

**Аннотация:** Лидерство и психологические стратегии управления в высшем образовании являются важной составляющей современной образовательной системы. В статье рассмотрена роль лидерства в

образовательном процессе, его влияние на атмосферу в коллективе и эффективные методы управления с психологической точки зрения.

**Ключевые слова:** Высшее образование лидерство психологические стратегии мотивация управление стрессом управление конфликтами психологическая адаптивность эмоциональный интеллект эффективное управление формирование командной атмосферы.

## **PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF LEADERSHIP AND MANAGEMENT IN THE PROCESS OF HIGHER EDUCATION**

**Shakir Nurboboev, Boynazarovich**

**Teacher of Kattakorgan branch of Samarkand State University**

**e-mail: [shokir.nurboboyev1991@gmail.com](mailto:shokir.nurboboyev1991@gmail.com)**

**phone: +998 95 191 75 59**

**Abstract:** Leadership and psychological strategies in higher education management are essential components of the modern educational system. This article examines the significance of leadership in educational processes, its influence on team dynamics, and effective psychological management methods. Key topics include developing leadership skills among students, the role of motivation and communication, stress and conflict management, and psychological flexibility within the educational framework.

**Key words:** Higher education leadership psychological strategies motivation stress management conflict management psychological flexibility emotional intelligence effective management team environment development

### **KIRISH**

Ta'lim tizimi muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biri samarali boshqaruv va liderlikdir. Oliy ta'lim jarayonida liderlik zamonaviy ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, talabalarni nafaqat bilim, balki yetakchilik qobiliyatlari bilan ham ta'minlashga xizmat qiladi. Jamiyat rivojlanishi va global muhitda muvaffaqiyatga erishish uchun talabalar orasida liderlik ko'nikmalarini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Liderlik ko'nikmalari har qanday sohada muvaffaqiyatga erishish uchun zarur. Oliy ta'lim tizimini boshqarish jarayonida psixologik omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ta'lim muassasasi rahbarlari, o'qituvchilar, talaba va boshqa xodimlarning psixologik holati boshqaruvning samaradorligi, ta'lim sifatining oshishi va umumiy muhitga bevosita ta'sir qiladi.

### **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili**

Liderlik va boshqaruvning psixologik jihatlari bo'yicha ko'plab mashhur olimlar va tadqiqotchilar turli davrlarda ilmiy izlanishlar olib borgan. **Kurt Levin (Kurt Lewin)** "Uchta liderlik uslubi" (avtoritar, demokratik, laissez-faire). Levin liderlikning

psixologik jihatlarini tadqiq qilib, guruh dinamikasi va ijtimoiy psixologiyaga asos solgan. U liderlik uslublarining jamoa faoliyatiga qanday ta'sir qilishini o'rgangan. **Douglas McGregor** "X va Y nazariyalari". McGregor rahbarlikning ikki asosiy yondashuvi: avtoritar (X nazariya) va ishonchga asoslangan (Y nazariya) yondashuvlarini taklif qilgan. Bu nazariyalar liderlik va motivatsiya o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntiradi. **Warren Bennis** liderlik va boshqaruv o'rtasidagi farqlar. Bennis liderlik sifatlarini va samarali rahbar bo'lish uchun zarur ko'nikmalarni tahlil qilgan. U liderlikning shaxsiy jihatlari, xarakter xususiyatlari va boshqaruv uslublari haqida keng tadqiqotlar olib borgan. **Fred Fiedler** "Fiedlarning kontingentlik nazariyasi". Fiedler rahbarlik samaradorligi rahbarning shaxsiyati va vaziyat talablariga mos kelishiga bog'liqligini taklif qilgan. Bu nazariya liderlikning vaziyatga qarab qanday o'zgarishini tushuntiradi. **Daniel Goleman** Emotsional intellekt (EI). Goleman rahbarlikdagi emotsional intellektning muhim rolini o'rganib chiqdi. U shaxsning o'z emotsiyalarini boshqarish va boshqalarning emotsiyalarini tushunish qobiliyati liderlik samaradorligini oshirishini ta'kidlagan.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

**Liderlik va boshqaruvning psixologik jihatlarini o'rganish metodologiyasi** ko'plab yondashuvlar, usullar va tadqiqot texnikalaridan iborat bo'lib, ular asosiy psixologik omillarni, rahbarlik xususiyatlarini va ijtimoiy ta'sir mexanizmlarini o'rganishni maqsad qiladi. Quyida bu sohada qo'llaniladigan asosiy metodologik yondashuvlar keltirilgan:

#### **Tajriba (eksperimental) tadqiqotlar**

#### **So'rovnoma va testlar**

#### **Vaziyatli yondashuv (situatsion metodologiya)**

#### **Tarixiy va hujjatlar tahlili**

#### **Psixometrik testlash**

#### **Ijtimoiy tarmoq tahlili**

#### **Intervyu va fokus guruhlar**

#### **Metaanaliz**

Ushbu metodologiyalar liderlik va boshqaruvning turli jihatlarini chuqurroq va kengroq o'rganishga imkon beradi. Metodologiyani tanlash ko'pincha tadqiqotning maqsadlari, tadqiqotchining yondashuvi va mavjud resurslarga bog'liq bo'ladi.

### **Tahlil va natijalar.**

Ta'lim jarayonida liderlik quyidagi afzalliklarni ta'minlaydi: **Mas'uliyatni oshirish** – Talabalar yetakchi sifatida mustaqil qaror qabul qilish va o'z guruhlarini boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar. **Ijodiy fikrlashni rivojlantirish** – liderlik talabalarni yangicha fikrlashga, muammolarni hal qilishda innovatsion yondashuvlarga

yo'naltiradi. **Jamoaviy ishlash ko'nikmalarini shakllantirish** – Jamoa ichida muvofiqlikni ta'minlash va hamkorlik qilish liderlikning asosiy jihatlaridan biridir.

Liderlik nafaqat tashkilotning maqsadlarini amalga oshirishni boshqaradi, balki jamoa a'zolarining psixologik muhitini ham shakllantiradi. Ta'lim jarayonida liderlik faqat rahbar bilan cheklanmaydi, balki o'qituvchilar va talabalarning ichki salohiyatini ochib beradigan vosita hisoblanadi. Liderlik – bu jamoa yoki tashkilotni maqsadlarga erishish uchun birlashtirish va yo'naltirish jarayoni bo'lib, u shaxsning psixologik xususiyatlariga, muloqot qobiliyatiga va motivatsion ta'siriga asoslanadi. Liderlik nafaqat boshqaruv vazifalarini bajarish, balki jamoaning ichki ehtiyojlarini anglash va ularga javob berish orqali samaradorlikka erishishning psixologik vositasidir.

Psixologik liderlikda shaxsning boshqalarda ishtiyoq va intilish uyg'otish qobiliyati muhim o'rin tutadi. Bu jarayon orqali lider jamoa a'zolarida umumiy maqsadga erishishga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytiradi. Samarali lider bo'lish uchun muloqot qilish qobiliyati zarur. Psixologik jihatdan kuchli liderlar ochiq va aniq muloqot orqali jamoa o'rtasida o'zaro tushunishni ta'minlaydi. Liderlikning psixologik mohiyati faqat vazifalarni bajarishga emas, balki jamoa a'zolarining hissiy va ijtimoiy ehtiyojlariga e'tibor qaratishga asoslanadi. Bu jarayon jamoa a'zolarining motivatsiyasini oshiradi.

Oliy ta'lim muassasalarini samarali boshqarish uchun psixologik yondashuvlar va strategiyalarning ahamiyati juda katta. Bu strategiyalar rahbarlar, o'qituvchilar va talabalar o'rtasida ijobiy muhit yaratib, boshqaruv jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Quyida oliy ta'limda boshqaruvning asosiy psixologik strategiyalari bayon etilgan:

**1. Emotsional intellektga asoslangan boshqaruv** Rahbarlarning o'z va boshqalarning emotsiyalarini anglash, boshqarish va ularga moslashish qobiliyati boshqaruvning asosiy jihatlaridan biridir. **Oqilona qaror qabul qilish:** Emotsiyalarni boshqarish orqali stressli vaziyatlarda to'g'ri qarorlar qabul qilinadi. **Muloqotni rivojlantirish:** rahbar va xodimlar o'rtasidagi samimiy va ochiq muloqotga yo'l ochadi. **Motivatsiyani oshirish** jamoaning ruhiy holatini anglash orqali samaradorlikni ta'minlaydi.

**2. Motivatsion boshqaruv strategiyalari** ta'lim jarayonida xodimlar va talabalarni ruhlantirish uchun motivatsion yondashuvlar qo'llaniladi: **ichki va tashqi motivatsiya uyg'unligi** talabalar va xodimlarga ular uchun muhim bo'lgan maqsadlar va mukofotlarni taklif qilish. **Qadrlash madaniyatini shakllantirish** muvaffaqiyatlarni tan olish va rag'batlantirish orqali talabalar va xodimlarning ishtiyoqini oshirish. **Kasbiy o'sish imkoniyatlarini yaratish**–rahbarlar xodimlar va talabalarni yangi mahoratlarni egallashga rag'batlantirishi kerak.

**3. Psixologik moslashuvchanlikni rivojlantirish** oliy ta'lim tizimidagi o'zgaruvchan muhitda rahbarlar va xodimlarning moslashuvchan bo'lishi muhim. **O'zgarishlarni qabul qilish** yangi boshqaruv usullari va texnologiyalarga o'rganishni ta'minlash. **Stressni boshqarish** murakkab vaziyatlarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun rahbar va xodimlar stressni bartaraf etish usullarini bilishi kerak. **Psixologik bardoshlilikni oshirish** muammoli vaziyatlarga qarshi samarali qarshilik ko'rsatish qobiliyatini rivojlantirish.

**4. Samarali muloqot va hamkorlik strategiyalari** boshqaruv jarayonida samarali muloqotni tashkil etish jamoaning muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. **Faol tinglash** jamoa a'zolarining fikrlarini eshitish va ularga qiziqish bildirish. **Ochiq va konstruktiv muloqot** muammolarni hal qilishda o'zaro fikr almashuvga asoslangan yondashuvni qo'llash. **Hamkorlikni qo'llab-quvvatlash** talabalar va xodimlar o'rtasida jamoaviy loyihalarni tashkil etish orqali umumiy maqsadga erishish.

**5. Konfliktlarni boshqarish strategiyalari** oliy ta'lim muassasalarida yuzaga keladigan ziddiyatlarni samarali boshqarish uchun quyidagi usullar qo'llaniladi. **Ziddiyatlarni erta aniqlash** konflikt boshlanishidan oldin uning sabablarini aniqlash. **Konstruktiv hal qilish yondashuvi** har ikki tomon manfaatlarini hisobga olib, masalani hal qilishga yo'naltirish. **Neutral pozitsiyada bo'lish** rahbarlarning ziddiyatlarda adolatli va xolis bo'lishi muhimdir.

**6. Psixologik muhitni yaxshilash** jamoa a'zolarining ruhiy holatini ijobiy tomonga yo'naltirish boshqaruv samaradorligini oshiradi. **Ochiq va ishonchli muhit yaratish** talabalar va xodimlarning o'zlarini erkin his qilishlarini ta'minlash. **Stressni kamaytiruvchi dasturlar**: Stressni kamaytirish uchun jismoniy va ruhiy salomatlik dasturlarini joriy etish. **Motivatsion tadbirlar tashkil etish** konferensiyalar, treninglar va rag'batlantiruvchi uchrashuvlar orqali jamoaning umumiy maqsadlarga bo'lgan qiziqishini oshirish.

**7. O'z-o'zini boshqarishni rivojlantirish** o'z-o'zini boshqarish qobiliyati rahbarlar, o'qituvchilar va talabalar uchun muhimdir. **Mas'uliyatni o'z zimmaga olish** har bir shaxsning o'z vazifalarini tushunib bajarishi. **Rejalashtirish va vaqtni boshqarish** tashkiliy ishlarni samarali rejalashtirish orqali natijadorlikni oshirish. **O'z-o'zini baholash va rivojlantirish** o'z kuchli va zaif tomonlarini anglab, ularda ishlash.

#### Liderlik uslubining psixologik ta'siri

- **Demokratik liderlik**: Bu uslubda lider jamoa bilan birgalikda qaror qabul qiladi va ularning fikr-mulohazalarini hisobga oladi. Psixologik jihatdan bu uslub jamoaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va hamjihatlikni kuchaytiradi.

- **Avtoritar liderlik**: Bu uslub qat'iy nazoratga asoslangan bo'lib, liderning qarorlariga jamoa ko'proq bo'ysunadi. Psixologik jihatdan qisqa muddatli natijalar

uchun samarali bo'lishi mumkin, ammo uzoq muddatda salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli yuqori.

- **Laissez-faire liderlik:** Ushbu uslubda lider jamoa a'zolariga erkinlik beradi. Bu yondashuv ijodkorlikni rag'batlantirishi mumkin ammo samaradorlikni pasaytirishi ehtimoli mavjud.

### **3. Liderlikning psixologik omillari**

- **Stressni boshqarish qobiliyati:** Liderlikda psixologik mustahkamlik va bosim ostida samarali qaror qabul qilish qobiliyati muhim ahamiyatga ega.

- **Konfliktlarni boshqarish:** Jamoa ichidagi nizolarni hal qilishda liderning psixologik yondashuvi muhim. Konfliktlarni ijobiy natija bilan boshqarish jamoaning barqarorligini oshiradi.

- **Psixologik moslashuvchanlik:** O'zgaruvchan sharoitlarda liderning moslashuvchanligi jamoaning muvaffaqiyatiga ta'sir ko'rsatadi.

### **4. Psixologik liderlikning ahamiyati**

- Jamoa o'rtasida ishonch va hurmatni mustahkamlash.
- Innovatsiyalarni joriy qilishda jamoani qo'llab-quvvatlash.
- Xodimlar va talabalar salohiyatini ochib berishga xizmat qilish.
- Jamoaning emotsional va motivatsion holatini boshqarish.

Ta'lim jarayonida liderlik va boshqaruvning psixologik jihatlarini to'g'ri qo'llash nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki tashkilotdagi jamoa ruhini kuchaytiradi. Samarali liderlik talaba va xodimlarning emotsional va intellektual rivojlanishini ta'minlaydi. Shu sababli, ta'lim muassasalari rahbarlari va o'qituvchilarining liderlik qobiliyatlarini doimiy ravishda rivojlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

### **Xulosa va takliflar**

Oliy ta'lim jarayonida liderlik talabalarni nafaqat o'qitish, balki ularning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan yondashuvdir. Liderlik qobiliyatlariga ega bo'lgan yosh avlod kelajakda mamlakat taraqqiyoti uchun muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, ta'lim jarayonida liderlikni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'lamini kengaytirish dolzarb masalalardan biridir. Liderlikning psixologik mohiyati insoniy munosabatlarni boshqarish, motivatsiya va muloqot orqali jamoaning rivojlanishiga ko'maklashishdir. Samarali liderlik faqat boshqaruv qobiliyatlarida emas, balki insonlarning psixologik ehtiyojlarini anglash va ularga mos tarzda yo'nalish berishda namoyon bo'ladi. Ta'lim muassasalarida psixologik jihatdan barkamol liderlar faoliyati ta'lim jarayonining sifatini oshirish uchun muhim omil hisoblanadi. Oliy ta'lim tizimini boshqarishda psixologik yondashuvlar muvaffaqiyat kaliti hisoblanadi. Rahbarlar va o'qituvchilar psixologik tamoyillarni qo'llash orqali jamoada ishonchli muhit yaratishi, ta'lim jarayonining

samaradorligini oshirishi mumkin. Shu sababli, boshqaruv jarayonida insonning psixologik xususiyatlariga alohida e'tibor qaratish dolzarb masala hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Goleman, D. *Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ*. Bantam Books, 1995.
2. Northouse, P. G. *Leadership: Theory and Practice*. SAGE Publications, 2019.
3. Yukl, G. A. *Leadership in Organizations*. Pearson, 2013.
4. Robbins, S. P., Judge, T. A. *Organizational Behavior*. Prentice Hall, 2018.
5. Burns, J. M. *Leadership*. Harper & Row, 1978.
6. Bass, B. M., Riggio, R. E. *Transformational Leadership*. Psychology Press, 2006.
7. Lewin, K., Lippitt, R., White, R. K. "Patterns of Aggressive Behavior in Experimentally Created Social Climates." *Journal of Social Psychology*, 1939.
8. **Qodirov, A., Qodirova, N., va Norboyeva, G.** (2020). Psixologik salomatlik va stress boshqaruvi. *O'zbekiston Psixologiyasi Jurnal*, 15(2), 89-102.
9. Elmurodov U.Y Oliy ta'lim tizimi rahbarlarida liderlik qobiliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (PhD) .. diss.avtoref.: 19.00.05. – T.: SamDu, 2023.
10. **Salanova, M., Llorens, S., & Schaufeli, W. B.** (2011). "Yes, I can, I feel good, and I just do it!" On gain cycles and spirals of efficacy beliefs, affect, and engagement. *Applied Psychology: An International Review*, 60(2), 255-285.